

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 338.486(575.1)

RASULOV SHERZOD ASHIROVICH

**O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY TURIZM FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17- Turizm va mehmonxona faoliyati

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
Saidov Mash‘al Samadovich
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor**

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. IJTIMOIIY TURIZM FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI VA YONDASHUVLAR	13
1.1. Ijtimoiy turizm faoliyati shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari	13
1.2. Ijtimoiy turizm faoliyatini tashkil etish jarayonlariga yondashuvlar hamda ularning xususiyatlari	26
1.3. Ijtimoiy turizm faoliyati rivojlanishining xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish	37
Birinchi bob bo'yicha xulosa	49
2-BOB. O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY TURIZM FAOLIYATI RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA'SIRINI HAMDA FAOLIYAT RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MUAMMOLARINI BAHOLASH	52
2.1. O'zbekistonda ijtimoiy turizm faoliyati rivojlanishiga omillar ta'siri va faoliyat natijalarining omillar bilan bog'lanish yo'nalishlari.....	52
2.2. Ijtimoiy turizm faoliyati rivojlanishining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini baholash	65
2.3. Ijtimoiy turizm faoliyatining samaradorligini baholash uslubiyoti asosida faoliyatni korreksiyalash imkoniyatlari.....	80
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	96
3-BOB. O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA STRATEGIK RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	98
3.1. Ijtimoiy turizm faoliyatini rivojlantirish jarayonlarini modellashtirish va boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	98
3.2. Global nobarqarorlik sharoitida ijtimoiy turizmni davlat tomonidan moliyalashtirish asosida turizm sohasini qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari	116
3.3. O'zbekistonda ijtimoiy turizm faoliyatini maqsadli davlat dasturlari vositasida strategik rivojlantirish istiqbollari	128
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	142
XULOSA	144
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	147
ILOVALAR	160

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida turizm sohasining taraqqiyotini ifodalovchi hozirgi davr, ommaviy sayohat jarayonlarining tez sur'atlar bilan kengayib borishi bilan tavsiflanadi. Bunday o'zgarishlarning asosiy omillari qatoriga aholining turmush darajasining yuksalishi, ijtimoiy yordam tizimlarining takomillashuvi hamda turizm infratuzilmasiga qaratilayotgan investitsiyalarning ortishi kiradi. Shu bilan birga, transport tarmoqlarining kengayishi va rivojlanishi, kam ta'minlangan qatlamlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kuchaytirilishi ham ushbu jarayonni jadallashtiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Butun jahon turizm tashkiloti (BTT) ma'lumotlariga ko'ra, «Xalqaro turizmning eksport tushumlari 1,8 trln. AQSh dollariga (tushumlar va yo'lovchi tashishni hisobga olgan holda) etganligini ko'rsatadi, bu pandemiyadan oldingi ko'rsatkichlar bilan deyarli bir xil (haqiqatda 2019 yilga nisbatan -1% kam). 2023 yilda turizm sohasidan ko'rilgan daromadlar hajmi 3,4 trln. dollarni tashkil etib, bu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotning jami 3%ini tashkil qilgan»¹. Turizm sanoatini barqaror rivojlantirish jarayonida mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hamda kelajakda qo'llanilishi mumkin bo'lgan resurslarni samarali yo'naltirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda nafaqat iqtisodiy salohiyatni kengaytirish, balki turizm xizmatlari tizimining ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish ham zaruriy shart hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, xizmatlar sifati va ularning aholiga ta'sir doirasini oshirish, shuningdek, ushbu faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda jahon miqyosida turizmning tarkibiy tuzilmalari aholining kundalik ehtiyojlari asosida shakllanmoqda. Xususan, bugungi kunda turizm bozorida kuzatilayotgan jadal o'sish jarayonida ijtimoiy turizm faoliyatining ko'lamini kengaytirish alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayon orqali mavjud muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish, aholining turli ijtimoiy

¹<https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>

qatlamlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish hamda turizm xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirish mumkin. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish va investitsion resurslarni jalb etish orqali sohaga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa, o‘z navbatida, turizmning jozibadorligini oshirish bilan birga, uning barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi tashkiliy-iqtisodiy tizimlarning yanada mukammallashtirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ijtimoiy turizmni tashkil etish jarayonida tizimli yondashuv asosida amaliy choralarni kengaytirish alohida ahamiyatga ega. Xizmatlardan foydalanishni raqamli texnologiyalar yordamida soddalashtirish nafaqat turistlarga qulaylik yaratadi, balki turizm bozorida samaradorlikni ham oshiradi. Davlat tomonidan moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish esa ijtimoiy turizmning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Shu bilan birga, sohaga oid metodologik yondashuvlarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, ilmiy izlanishlarni yanada jadallashtirish va ularning natijalarini amaliyotga joriy etish turizm sohasining ustuvor strategik vazifalaridan biri sifatida qoraladi.

O‘zbekistonda ijtimoiy turizmni rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlar mazmunan keng qamrovli yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, turizm sohasi uchun qulay sharoitlar yaratishda xalqaro me‘yor va standartlarni joriy etish, xizmatlar sifatini global talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aholining daromadlarini oshirish, turmush darajasi va sifatini yaxshilash orqali turizmning ijtimoiy jihatlarini mustahkamlanadi. Mazkur jarayon mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini orttirish hamda xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishga ham bevosita hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, sohaga davlat–xususiy sherikchilik mexanizmlarini keng joriy etish, klasterli yondashuv asosida rivojlantirish va metodologik asoslarni takomillashtirish ham strategik vazifalar qatorida e‘tirof etilmoqda. «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida “Ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan muhtojlarning barchasi to‘liq qamrab olinishiga erishish, ijtimoiy xizmatlarni majmuaviy amalga oshirish uchun respublikaning barcha tuman va shaharlarida «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini tashkil qilish va